Xudayberganova Nazokat Shonazarovna

Ma'mun universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti

Masharipova Xosiyat Matrasulovna

Ma'mun universiteti,
Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirishda inson kapitalining strategik o'rni tadqiq etilgan. Solou–Svon modelining raqamli modifikatsiyasi asosida muallif tomonidan mintaqaviy samaradorlikni baholovchi

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

formulasi taklif etilgan. 2023–2024-yillar statistik ma'lumotlari tahlili inson kapitali sifati hududiy YaHM o'sishiga texnik infratuzilmaga nisbatan 1,5 barobar kuchliroq ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Maqolada "Triple Helix" modeli asosida raqamli qayta tayyorlashni subsidiyalash (Digital-Reskilling), masofaviy bandlikni rivojlantirish (Remote-First) hamda klasterli integratsiya mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, inson kapitali, raqamli tafovut, Triple Helix, Solou–Svon modeli, raqamli ko'nikmalar, "aqlli" ixtisoslashuv, mintaqaviy raqamli samaradorlik.

Abstract. This article examines the strategic role of human capital in the structural transformation of the regional economy under conditions of digital transformation. Based on a modified Solow–Swan model, the author proposes the following formula for assessing regional digital efficiency:

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

The analysis of statistical data for 2023–2024 reveals that the quality of human capital has a 1.5 times stronger impact on regional GDP growth than technical infrastructure. The article scientifically substantiates incentive mechanisms based on the "Triple Helix" model, including Digital-Reskilling subsidies, Remote-First employment strategies, and cluster integration mechanisms.

Key words: digital transformation, regional economy, human capital, digital divide, Triple Helix, Solow–Swan model, digital skills, smart specialization, regional digital efficiency.



Аннотация. В статье исследуется стратегическая роль человеческого капитала в структурной трансформации региональной экономики в условиях цифровой трансформации. На основе модифицированной модели Солоу–Свона автором предложена формула оценки региональной цифровой эффективности:

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

Анализ статистических данных за 2023–2024 годы показал, что влияние качества человеческого капитала на рост регионального ВВП в 1,5 раза выше по сравнению с уровнем технической инфраструктуры. В статье научно обоснованы механизмы стимулирования на основе модели «Triple Helix», включая субсидирование цифровой переподготовки (Digital-Reskilling), развитие удалённой занятости (Remote-First) и кластерную интеграцию.

Ключевые слова: цифровая трансформация, региональная экономика, человеческий капитал, цифровой разрыв, Triple Helix, модель Солоу–Свона, цифровые навыки, «умная» специализация, региональная цифровая эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan raqamli transformatsiya mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanish paradigmasini tubdan o'zgartirmoqda. "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi (Klaus Schwab, 2016) sharoitida hududlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslarga emas, balki ularning raqamli moslashuvchanligi hamda inson kapitali sifatiga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda [1-2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni¹ doirasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmogda [3]. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda IT-xizmatlar eksporti 644 mln AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa 2023-yilga nisbatan qariyb ikki barobar o'sishni anglatadi [4]. Shu bilan birga, dolzarb masalalardan biri — mintaqalar o'rtasidagi raqamli tafovut (digital divide) — hanuz muhim ahamiyat kasb etmogda. Jumladan, IT-xizmatlar hajmining 72 foizdan ortig'i Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi [5].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining tegishli raqamli ko'nikmalari bilan qo'llab-quvvatlanmagan hududlarda kutilgan iqtisodiy samarani to'liq ta'minlay olmaydi [6-7]. Mazkur hodisa iqtisodiyot fanida "raqamli paradoks" sifatida talqin qilinadi, ya'ni texnologiyalar mavjud bo'lsa-da, ularni iqtisodiy qiymatga aylantiruvchi malakali inson kapitali yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi.

O'zbekiston aholisining 57 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslardan iborat bo'lib, bu mamlakatning salmoqli inson kapitali salohiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, World Bank hisobotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida raqamli ko'nikmalar va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik ("skills mismatch") iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [6]. Shu sababli, mintaqaviy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilishda inson kapitalini rag'batlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqolada birinchi marta:

1. O'zbekiston mintaqalari uchun Solou–Svon modelining raqamli modifikatsiyasi asosida quyidagi formula taklif etilib, empirik jihatdan sinovdan o'tkazildi:

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

2. Raqamli inson kapitalining hududiy YaHM o'sishiga ta'sir koeffitsienti 1,5 barobar yuqori ekanligi aniqlandi;

3. Mintaqaviy raqamli tafovutni qisqartirishga qaratilgan "Triple Helix" modeli asosidagi kompleks mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarini inson kapitali orqali rag'batlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish nazariyasida inson kapitalining muhim omil sifatidagi o'rni alfab bor Robert Solow (1956) tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish funksiyasida texnologik taraqqiyot omili orqali ifodalangan [8]. U quyidagi klassik modelni taklif etgan:

¹ <https://lex.uz/docs/-5030957>



$$Y = A \times F(K, L)$$

Keyinchalik Nobel mukofoti sovrindori Paul Romer (1990) endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida bilim va inson kapitalining texnologiyalarni yaratishdagi hal qiluvchi rolini ilmiy jihatdan asoslab berdi [9]. Romer nazariyasiga ko'ra, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar boshqa resurslardan farqli ravishda ortib boruvchi daromad qonuniga bo'ysunadi.

Gary Becker (1964) inson kapitalini "insonlarda mujassamlashgan bilim, ko'nikma va salomatlik majmui" sifatida ta'riflab, unga investitsiya qilishning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqqan [10]. Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida ushbu tushuncha yangi mazmun bilan boyimoqda. Xususan, raqamli ko'nikmalar an'anaviy inson kapitalining alohida va jadal rivojlanayotgan tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff (2000) tomonidan ishlab chiqilgan "Triple Helix" modeli [11] — davlat, biznes va akademik muassasalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlik tizimi — raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy rivojlanishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida keng e'tirof etilmoqda. OECD (2023) ushbu modelni "Aqli ixtisoslashuv" (Smart Specialization) strategiyasini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida belgilagan [12].

Daron Acemoglu va Pascual Restrepo (2018) avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganib, raqamli ko'nikmalarga ega inson kapitalining texnologik o'zgarishlarga moslashuvchanligi iqtisodiy o'sishning muhim prognoz omili ekanligini asoslab bergan [13]. Shuningdek, European Commissionning DESI (Digital Economy and Society Index, 2022) hisobotida inson kapitalining raqamli ko'rsatkichlari bilan mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligi ($r = 0,78$) qayd etilgan [14].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim, akademik Q.X. Abdurahmonov (2022) o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini nafaqat ishchi kuchi, balki "innovatsiyalar subyekti" sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydi [15]. Shu bilan birga, mamlakat mintaqalari kesimida inson kapitalini raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy-amaliy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil va sintez, mintaqaviy qiyosiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, panel ma'lumotlar tahlili hamda korrelyatsion-regression tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Empirik ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, IT Park Uzbekistan hamda World Bankning WDI (World Development Indicators) ko'rsatkichlaridan foydalanildi [4-5, 16].

Mintaqaviy raqamli samaradorlikni baholash uchun Robert Solow va Trevor Swan tomonidan ishlab chiqilgan Solou–Svon ishlab chiqarish funksiyasining raqamli modifikatsiyasi asosida quyidagi model taklif etildi:

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

Bu yerda:

- E — mintaqaning raqamli iqtisodiy samaradorligi (Regional Digital Efficiency Index);
- $ICTcap$ — mintaqaning raqamli infratuzilmasi va texnologik salohiyat indeksi (internet qamrovi, IT Park rezidentlari soni hamda AKT xizmatlari hajmi asosida hisoblanadi);
- $HCindex$ — inson kapitalining raqamli ko'nikmalar sifati indeksi (oliy ma'lumotlilar ulushi, qayta tayyorlash — reskilling dasturlarida qatnashganlar soni va raqamli sertifikatlar soni asosida shakllantiriladi);
- $Rcost$ — raqamli transformatsiya jarayonidagi umumiy tranzaksion xarajatlar (internet narxlari, byurokratik to'siqlar va infratuzilma yetishmovchiligi koeffitsientlari asosida aniqlanadi).

Solou modelidagi texnologik taraqqiyot koeffitsienti — A — mazkur tadqiqotda

$$ICTcap \times HCindex$$

ko'paytmasi orqali ifodalandi. Bu esa raqamli texnologiyalar ($ICTcap$) inson kapitali ($HCindex$) bilan uyg'unlashgandagina yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashini anglatadi. Modelda $Rcost$ omili "qarshilik koeffitsienti" sifatida talqin qilinadi: tranzaksion xarajatlar qanchalik yuqori bo'lsa, umumiy samaradorlik darajasi shunchalik pasayadi.

2020–2024-yillar davri bo'yicha 14 ta mintaqada kesimida shakllantirilgan panel ma'lumotlar asosida regressiya tahlili o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, inson kapitali indeksining koeffitsienti

$$\beta_1 = 0.62 \quad (p < 0.01)$$

raqamli infratuzilma koeffitsientidan

$$\beta_2 = 0.41 \quad (p < 0.05)$$



taxminan 1,5 barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu natija inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar texnik infratuzilmaga nisbatan mintaqaviy YaHM o'sishiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida IT-xizmatlar eksporti 644 mln AQSH dollarini tashkil etdi [4]. Mazkur ko'rsatkich 2023-yildagi 344 mln AQSH dollariga nisbatan 1,87 barobar o'sganini anglatadi. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyot va IT-sohasining jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, malakali IT-mutaxassislar salohiyatining hududlar bo'yicha farqlanishi hamda raqamli ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi ayrim mintaqalarning iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarida raqamli iqtisodiyot va inson kapitali ko'rsatkichlari (2024-y.)

Hudud	AKT xizmatlari (mlrd. so'm)	Oliy ma'lumotlilar bandlikda (%)	IT-Park rezidentlari	Internetdan foydalanuvchilar (%)
Toshkent shahri	16 820,4	42,8	1 150	92,0
Toshkent viloyati	1 240,6	28,3	142	83,5
Samarqand vil.	1 105,3	21,5	98	74,5
Farg'ona vil.	952,1	19,8	82	71,0
Andijon vil.	814,7	18,9	65	70,2
Buxoro vil.	621,8	18,1	54	68,8
Xorazm vil.	478,4	18,2	48	68,0
Qashqadaryo vil.	412,0	16,9	38	64,5
Surxondaryo vil.	363,5	16,5	32	62,5
Navoiy vil.	298,6	20,4	28	66,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [4-5].

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, AKT xizmatlarining 72–75 foizi Toshkent shahri va Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan 9 ta hududning ulushi esa atigi 25–28 foizni tashkil etadi. Mazkur holat raqamli iqtisodiyotning hududlar kesimida notekis rivojlanayotganini hamda ayrim mintaqalarda raqamli iqtisodiy salohiyatni yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda raqamli xizmatlar hajmi ham sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Toshkent shahrida oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushi 42,8 foizni, Toshkent viloyatida esa 28,3 foizni tashkil etadi. Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushining 1 foizga ortishi hududiy AKT xizmatlari hajmining o'rtacha 1,8–2,2 foizga oshishiga olib keladi. Mazkur bog'liqlik quyidagi regressiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi:

$$\beta = 0.82 (p < 0.01)$$

Bu natija inson kapitalining sifati raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli sertifikatlariga ega xodimlarning o'rtacha mehnat unumdorligi an'anaviy sohalarida faoliyat yurituvchi xodimlarga nisbatan 3,4 barobar yuqori [4, 15]. Ushbu ko'rsatkich mintaqaviy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilishda raqamli inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etishini bevosita tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligi: hududiy YaHMga ta'siri

Ko'rsatkich	Past raqamli indeks (Rcost↑)	O'rtacha raqamli indeks	Yuqori raqamli indeks (HCindex↑)
Raqamli samaradorlik (E indeksi)	0,31 (past)	0,57 (o'rtacha)	0,89 (yuqori)
Hududiy YaHMga ta'sir (β)	0,18	0,41	0,74
IT-eksportdagi ulush (%)	3–5%	10–15%	30–40%
Reskilling ROI (3 yil)	1 : 1,8	1 : 3,2	1 : 4,5

Manba: Muallif tomonidan panel ma'lumotlar (2020–2024) asosida tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari asosida mintaqaviy iqtisodiyot tarkibini sifat jihatdan modernizatsiya qilish uchun quyidagi to'rtta mexanizm taklif etiladi. Mazkur mexanizmlar Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan "Triple Helix" modeli asosida davlat, biznes va akademik muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni integratsion tarzda uyg'unlashtirishga qaratilgan [11].

Hududiy oliy ta'lim muassasalarini mahalliy sanoat korxonalari hamda IT Park Uzbekistan filiallari bilan "Triple Helix" modeli asosida integratsiya qilish taklif etiladi. Har bir viloyatda "raqamli klaster" tashkil etilib, talabalar uchun dual ta'lim tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalarning o'quv jarayonining bir qismi universitetda, ikkinchi qismi esa korxonalarda amaliy faoliyat bilan bog'lanadi [11-12].

Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ravishda klaster yo'nalishlari quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

- Xorazm viloyati — turizm va IT xizmatlari;
- Navoiy viloyati — sanoat va ERP-tizimlari;
- Toshkent — raqamli moliya va sun'iy intellekt (AI).

Mazkur yondashuv "Aqlli ixtisoslashuv" (Smart Specialization) tamoyillariga to'liq mos keladi [12].

Mintaqalardagi an'anaviy tarmoqlar — to'qimachilik, agrosanoat va tog'-kon sanoati vakillarini raqamli texnologiyalar bo'yicha qayta tayyorlagan korxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirish taklif etiladi. Bunda soliq imtiyozlari (20–30 foiz) yoki xarajatlarning 50 foizigacha bo'lgan subsidiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro tajribada shunga o'xshash mexanizmlar samarali natijalarni bergan. Jumladan:

- Janubiy Koreya — "K-Digital Training";
- Singapur — "SkillsFuture Credit";
- Germaniya — "Aufstiegs-BAföG" dasturlari orqali millionlab xodimlarning raqamli ko'nikmalari rivojlantirilgan [1-2].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qayta tayyorlash dasturlariga sarflangan har 1 mln so'm investitsiya 3 yil ichida hududiy YaHMga o'rtacha 4,5 mln so'm qo'shimcha qiymat yaratadi:

$$ROI = 1:4.5$$

Mintaqalardagi malakali yoshlarning poytaxt hududlariga migratsiyasini kamaytirish maqsadida viloyat markazlarida "raqamli ko-working" markazlari tarmog'ini yaratish taklif etiladi. Ushbu markazlar orqali hudud aholisi yashash joyini o'zgartirmagan holda global IT-bozorida xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada hududlarga qo'shimcha valyuta tushumi jalb qilinadi va mintaqaviy bandlik darajasi oshadi.

O'zbekistonda 2023-yilda mehnat migrantlari tomonidan amalga oshirilgan pul o'tkazmalari YaIMning taxminan 16–18 foizini tashkil etgani [17] aholining muayyan qismini masofaviy bandlik asosida o'z yashash hududida ish bilan ta'minlash katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, "Remote-First" strategiyasi hududlarda ichki iqtisodiy faollikni kuchaytirish, aholi daromadlarini barqaror oshirish va mahalliy iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslarni yo'naltirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy investitsiya loyihalarini tasdiqlash jarayonida loyihaning nechog'li "raqamli ish o'rinlari" yaratishi hamda kadrlar malakasini oshirishga yo'naltirilgan xarajatlari ulushini baholovchi DIG-ROI koeffitsientini joriy etish taklif etiladi. Mazkur mexanizm raqamli komponenti past bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini qayta ko'rib chiqishga imkon beradi va investorlarni inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi loyihalarga yo'naltiradi.

Agar taklif etilgan to'rtta mexanizm kompleks tarzda amalga oshirilsa, muallif hisob-kitoblariga ko'ra:

- 2027-yilga borib hududiy IT-eksport ulushi Toshkentdan tashqari mintaqalarda 15–20 foizdan 35–40 foizgacha oshishi;
- raqamli ko'nikmalarga ega ishchi kuchi ulushi 2024-yildagi 18 foizdan 30 foizgacha ko'payishi;
- hududiy YaHMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati qo'shimcha 0,8–1,2 foiz bandga ortishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari bevosita inson kapitalining raqamli moslashuvchanligiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:

1. Taklif etilgan quyidagi model mintaqaviy raqamli samaradorlikni baholashning ishonchli vositasi sifatida namoyon bo'ldi:

$$E = \frac{ICTcap \times HCindex}{Rcost}$$

Mazkur modelni O'zbekiston mintaqalari kesimida qo'llash natijasida hududiy nomutanosiblik darajasi E indeksi 0,31 dan 0,89 gacha o'zgarishi aniqlangan.



2. Panel ma'lumotlar tahlili inson kapitalining sifat indeksi (HCindex) raqamli texnologiyalar salohiyatiga (ICTcap) nisbatan hududiy YaHM o'sishiga 1,5 barobar kuchliroq ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi:

$$\beta_1 = 0.62 > \beta_2 = 0.41 \quad (p < 0.01)$$

3. O'zbekiston mintaqalarida raqamli tafovut muammosi sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. AKT xizmatlarining 72–75 foizi Toshkent hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli boshqa hududlarda raqamli inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy muvozanatni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

4. "Digital-Reskilling Subsidy" tizimi doirasida raqamli ko'nikmalarga yo'naltirilgan har 1 mln so'm investitsiya 3 yil ichida hududiy YaHMga o'rtacha 4,5 mln so'm qo'shimcha qiymat yaratishi prognoz qilinmoqda:

$$ROI = 1:4.5$$

Mintaqaviy iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish quyidagi zanjir asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Ta'lim (investitsiya) → Raqamli inson kapitali → Yuqori texnologik ish o'rni → Yuqori qo'shilgan qiymat → Mintaqaviy YaHM o'sishi

Mazkur tadqiqot natijalari Raqamli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini hududiy darajada amalga oshirishda amaliy-uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, u Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatini muvofiqlashtirishda metodik ahamiyat kasb etadi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda sun'iy intellekt va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini mintaqaviy kesimda chuqurroq o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Klaus Schwab (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum. ISBN 978-1-944835-01-9.
3. Erik Brynjolfsson, & Andrew McAfee (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company.
4. Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025). 2024-yil IT-sanoati yakunlari bo'yicha hisobot. Toshkent. [Digital.uz](https://digital.uz)
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024). O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyoti: statistik to'plam. Toshkent. [Stat.uz](https://stat.uz)
6. [World Bank](https://www.worldbank.org/) (2023). Digital Skills and the Future of Work in Central Asia. Washington, D.C.: World Bank Group. DOI: 10.1596/978-1-4648-1870-2.
7. [International Monetary Fund \(IMF\)](https://www.imf.org/) (2023). World Economic Outlook: A Rocky Recovery. Washington, D.C.: IMF. ISBN 979-8-40022-854-7.
8. Robert Solow (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth." Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94. DOI: 10.2307/1884513.
9. Paul Romer (1990). "Endogenous Technological Change." Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102. DOI: 10.1086/261725.
10. Gary Becker (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press. ISBN 978-0-226-04120-9.
11. Henry Etzkowitz, & Loet Leydesdorff (2000). "The Dynamics of Innovation: from National Systems and 'Mode 2' to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations." Research Policy, 29(2), 109–123. DOI: 10.1016/S0048-7333(99)00055-4.
12. OECD (2023). Going Digital Integrated Policy Framework: Revised Edition. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/dc930adc-en.
13. Daron Acemoglu, & Pascual Restrepo (2018). "The Race between Man and Machine: Implications of Technology for Growth, Factor Shares, and Employment." American Economic Review, 108(6), 1488–1542. DOI: 10.1257/aer.20160696.
14. European Commission (2022). Digital Economy and Society Index (DESI) 2022. Luxembourg: Publications Office of the European Union. DOI: 10.2759/54657.
15. Qosimjon Abdurahmonov (2022). Inson kapitali: O'zbekiston tajribasi va zamonaviy tendensiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. ISBN 978-9943-07-682-4.
16. IT Park Uzbekistan (2024). Yillik hisobot: rezidentlar va eksport ko'rsatkichlari. Toshkent. [IT Park Uzbekistan](https://itpark.uz)
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Mehnat bozori sharhi 2023. Toshkent. [CBU.uz](https://cbu.uz)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
